

SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOT KLASTERLARI FAOLIYATINING HOLATI VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Bekboyev Abdimo‘min Bekbo‘ta o‘g‘li
Termiz davlat universiteti. Algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi
Email: abdimo‘minbekboyev@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot klasteri faoliyatining tashkil etilganlik holati tahlil qilinadi. Viloyat qishloq xo’jaligining mmahsulot hajmi, xo’jalik toifalari kesimidagi tarkibi, kartoshka, sabzavot va meva yetishtirish ko’rsatkichlari 2018 va 2022 yil (yanvar-iyun) ma’lumotlari asosida o’rganilgan. Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo’jaliklarining ulushi kartoshka bo’yicha 95,3 %, sabzavot bo’yicha 91,1 %, meva bo’yicha 75,5 % ekani aniqlangan. Ekin maydonlari tarkibining o’zgarishi, klaster tizimini joriy etishning huquqiy asoslari va davlat siyosati yo’nalishlari yoritilgan. Aholi sonining o’sishi, suv tanqisligi, tuproq sho’rlanishi va unumdorlikning pasayishi, klasterlarni moliyalashtirish, shartnoma munosabatlari, eksport bozorlarini topish va yer ajratish bilan bog’liq muammolar ko’rsatilgan.
Kalit so‘zlar: meva-sabzavot klasteri, Surxondaryo viloyati, qishloq xo’jaligi, dehqon va fermer xo’jaliklari, ekin maydonlari tarkibi, eksport, oziq-ovqat xavfsizligi.
Abstract: The article analyzes how the fruit and vegetable cluster is organized in Surkhandarya region. Using data for 2018 and January-June 2022, it examines the volume and structure of agricultural output by type of farm, as well as potato, vegetable and fruit production. Household (subsidiary) farms are shown to account for 95.3% of potato, 91.1% of vegetable and 75.5% of fruit output. The article covers changes in the structure of sown areas, the legal basis for introducing the cluster system and state policy priorities. It identifies problems related to population growth, water scarcity, soil salinization and declining fertility, cluster financing, contractual relations, search for export markets and land allocation.
Keywords: fruit and vegetable cluster, Surkhandarya region, agriculture, household and farm enterprises, structure of sown areas, export, food security.
Абстрактный: В статье анализируется состояние организации деятельности плодоовощного кластера в Сурхандарьинской области. На основе данных за 2018 год и январь-июнь 2022 года рассмотрены объём сельскохозяйственного производства, его структура по категориям хозяйств, показатели производства картофеля, овощей и плодов. Установлено, что доля дехканских (личных подсобных) хозяйств составляет 95,3 % в производстве картофеля, 91,1 % овощей и 75,5 % плодов. Освещены изменения структуры посевных площадей, правовые основы внедрения кластерной системы и направления государственной политики. Выявлены проблемы: рост численности населения, дефицит воды, засоление и снижение плодородия почв, финансирование кластеров, договорные отношения, поиск рынков сбыта экспорта и выделение земельных участков.
Ключевые слова: плодоовощной кластер, Сурхандарьинская область, сельское хозяйство, дехканские и фермерские хозяйства, структура посевных площадей, экспорт, продовольственная безопасность.

Kirish (Введение/Introduction).

Ma’lumki, Surxondaryo viloyati respublikamizning eng janubiy qismi hisoblanib, geografik jihatdan mintaqaning markaziy va janubiy qismi tekisliklardan iborat. Surxondaryo viloyati 14 ta tuman, 1 ta shahar, 6 ta mahalliy ahamiyatga ega shaharlar va 252 ta qishloq aholi punktlaridan iborat. Umumuy yer maydoni 20,1 ming km². Viloyat aholisi 2018 yil 1 yanvar holatiga ko’ra, 2513,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yilda 50,8 ming kishiga yoki 1,02 %ga o’sgan. Jumladan, mintaqada shahar aholisi soni 892,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulishi 35,5 %), qishloq aholisi soni 1620,2 ming kishini (64,5 %) tashkil etadi.

Respublikada ishlab chiqariladigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarining 8,1 foizi Surxondaryo viloyatida yetishtiriladi. Jumladan bu ko’rsatgich poliz ekinlari bo’yicha 9,5 foizni, uzum – 8,7, sabzavot - 7,7 foizni tashkil etadi . Viloyatda 2018 yilda qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 15046,2 mlrd. so’mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 129,6 foizni (11608,1 mlrd. so’m) tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo’jalik mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlari umumiy ulushi 69,4 foizni tashkil etdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

A. Marshall [1] o‘zining “Principles of Economics” asarida ishlab chiqarishning hududiy joylashuvi, ixtisoslashuv va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini asoslab bergan. Muallifning fikricha, muayyan hududda o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish subyektlarining shakllanishi mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu nazariy qarashlar qishloq xo‘jaligi ekinlarini hududiy ixtisoslashtirish jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

M.E. Porter [2] “The Competitive Advantage of Nations” asarida mamlakat va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda ishlab chiqarish tarmoqlarining ixtisoslashuvi, innovatsiyalar hamda raqobat muhitining ahamiyatini yoritgan. Muallif hududiy iqtisodiy ustunliklardan samarali foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi.

M.E. Porter [3] “Clusters and the New Economics of Competition” maqolasida klasterlar nazariyasini rivojlantirib, o‘zaro bog‘liq korxonalar, yetkazib beruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning hududiy birlashuvi raqobatbardoshlikni kuchaytirishini asoslab bergan. Ushbu yondashuv qishloq xo‘jaligida meva-sabzavotchilik va uzumchilik klasterlarini rivojlantirishning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi.

M. Delgado, M.E. Porter va S. Stern [4] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda klasterlarning hududiy iqtisodiy o‘sish, bandlik va ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotchilar klasterlashuv jarayonlari hududlarda iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga xizmat qilishini asoslab bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash

to‘g‘risidagi PF-5853-son Farmonida [5] yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va bozor mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Ushbu strategik hujjat ekin maydonlari tarkibini hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlari va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining meva-sabzavot va uzumchilik klasterlarini tashkil etishga oid qarorida [6] qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va eksport jarayonlarini o‘zaro integratsiyalash masalalariga e’tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmoqlarida qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 378-son qarorida [7] hududda ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishini takomillashtirish masalalari nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining statistik ma’lumotlari [8] aholi soni hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘rganishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar asosida hududda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘zgarish tendensiyalarini va ekin maydonlari tarkibidagi siljishlarni statistik baholash imkoniyati yuzaga keladi.

Sh.M. Mirziyoyev [9] “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, hududlarning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish va aholi farovonligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu yondashuv qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va hududiy iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).


Tadqiqotda Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot klasterlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy jihatlari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Jumladan, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, statistik kuzatish, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda korrelyatsion-regression usullardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida meva-sabzavot yetishtirish hajmi, ekin maydonlari, hosildorlik, klasterlar soni, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash quvvatlari, eksport hajmi hamda investitsion faollik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, hududlar kesimida klasterlar faoliyatidagi tafovutlar aniqlanib, ularning iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar baholandi.

Olingan natijalar asosida meva-sabzavot klasterlari faoliyatida uchrayotgan moliyaviy, infratuzilmaviy, texnologik va logistika muammolari tizimlashtirildi. Yakunda statistik tahlil natijalarini umumlashtirish orqali klasterlar faoliyatini takomillashtirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish, eksport geografiyasini kengaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.


Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and rezults).

2022- yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 11 806,8 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari–6 446,0 mlrd. so‘mni (102,3 %), chorvachilik mahsulotlari– 5 360,8 mlrd. so‘mni (103,0 %) tashkil qildi.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi1.


2022- yilning yanvar–iyun oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Muzrabot tumanida (31,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (99,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Termiz tumanida (20,5 %) qayd etildi. Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Qiziriq tumanida (0,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Muzrabot tumanida (63,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun va Qiziriq tumanlarida (0,2 %) qayd etildi.



2-rasm. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)[2]. Kartoshka


1 Muallif ishlanmasi

[2] Muallif ishlanmasi




3-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kartoshka mahsulotining ulushi3.


2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 217,9 ming t. kartoshka (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



4-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida sabzavot mahsulotlarining ulushi4. Sabzavotlar.





2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 564,5 ming t. sabzavot (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



5-rasm. Surxondaryo viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna5 Mevalar.


3 Muallif ishlanmasi
4 Muallif ishlanmasi
5 Muallif ishlanmasi






6-rasm. Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi6

2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 78,8 ming t. meva (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 75,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



7-rasm. Surxondaryo viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, tonna7.



Tahlillar natijasida so’ngi 9 yil ichida viloyat aholisi 22 foizga ortgan. Qishloq xo’jalik mahsulotlari esa yerda yetishtirilishini hisobga olsak, yer yuzasining o’zgarmasligi tabiiy holat. Qolaversa, viloyatda suv muammosining yuzaga kelayotganligi, ekin maydonlarida sho’rlanish darajasi oshishi va buning natijasida tuproq unumdorligining pasayishi kuzatilmoqda. Keyingi yillarda viloyatda ekin maydonlari tarkibi ham

6 Muallif ishlanmasi

7 Muallif ishlanmasi

o’zgardi. Bu davr ichida g’alla, paxta maydonlari boshqa qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtirish hisobiga sezilarli darajada kamaytirildi.

Hududning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, qishloq xo’jalik ekinlarini oqilona joylashtirish, qishloq xo’jalik ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish hisobiga yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, fermer xo’jaliklari iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini oshirish, viloyat eksport salohiyatini ko’paytirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida qishloq xo’jaligi ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 378-son qarori viloyatda oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir qilayotgan omillarni qisman bartaraf qilishga xizmat qiladi32. Qarorda ta’kidlanishicha, viloyatda paxta yetishtirish uchun ajratilgan maydonlar 2016 yildagi 117,1 ming gektardan 2019 yilda 90,3 ming gektargacha qisqartiriladi. Boshoqli ekinlarni ekish uchun ajratilgan ekin maydonlari hisobot davrida 98 ming gektardan 93 ming gektargacha qisqartiriladi. Shu bilan birga, ushbu hududda kartoshka (2,1 ming gektarga), sabzavotlar (17,7 ming gektarga), mevalar (4,4 ming gektarga), yem-xashak ekinlari (4,1 ming gektarga), moy beradigan o’simliklar (2,2 ming gektar) va boshqa ekinlar (1,3 ming gektarga)ni yetishtirish uchun ajratilgan maydonlar kengaytirilishi ko’zda tutilgan edi. Ushbu qaror ijrosi natijasida 2019 yilda viloyat paxta xomashyosini yetishtirish 264 ming tonnagacha kamayadi (-64,8 ming tonna) va boshoqli ekinlar ishlab chiqarishi 474 ming tonna, kartoshka — 118 ming tonna, sabzavotlar 890 ming tonna, mevalar esa 172 ming tonnagacha ko’payganligini kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot klasterlarini rivojlantirish hududning agrar-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, klasterlar faoliyatida moliyaviy resurslar yetishmasligi, zamonaviy saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi kabi muammolar mavjud.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Meva-sabzavot klasterlariga zamonaviy tomchilatib sug‘orish va resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish.
2. Mahsulotlarni saqlash, saralash, qadoqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish.
3. Klasterlarning eksport salohiyatini oshirish va xalqaro sifat standartlarini joriy etish.
4. Klasterlar faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilish va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.
5. Fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari va eksport tashkilotlari o‘rtasidagi kooperatsion aloqalarni mustahkamlash.

Umuman olganda, meva-sabzavot klasterlari faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan takomillashtirish Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror o‘sishini ta’minlash, mahsulotlarning qo‘shilgan qiymatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududning eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References)

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida qishloq xo’jaligi ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 378-son qarori. [sanasi to’ldiriladi].
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni “O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi qarori (meva-sabzavot va uzumchilik klasterlarini tashkil etishga oid). [raqami to’ldiriladi].
4. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining ma’lumotlari: aholi soni, qishloq xo’jaligi mahsulotlari hajmi (2018 yil; 2022 yil yanvar-iyun). URL:
5. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
6. Porter M.E. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. 1998. Vol. 76, No. 6. P. 77-90.
7. Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, convergence, and economic performance // Research Policy. 2014. Vol. 43, No. 10. P. 1785-1799.
8. Marshall A. Principles of Economics. London: Macmillan, 1890.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. Toshkent: O’zbekiston, 2021.